

# KASB-HUNAR TA'LIMI

Профессиональное образование  
Professional education

Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal  
2022-yil, 2 -son

## Muassislar:

Oliy va o'rta maxsus ta'limgazalar  
Pedagogik innovatsiyalar, kasb-hunar ta'limi  
boshqaruv hamda pedagog kadrlarni qayta  
tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti

Bosh muharrir: M.XOLMUXAMEDOV  
Bosh muharrir o'rinnbosari: SH.QURBONOV  
Ijrochi direktor: H.SIROJIDDINOV

## Tahrir hay'ati:

Z.Y.XUDOYBERDIYEV, R.X.JO'RAYEV,  
A.Q.JALALOV, A.R.XODJABAYEV,  
J.SH.SHOSALIMOVA, A.NABIYEV,  
A.A.HASANOV, H.SIROJIDDINOV,  
K.M.GULYAMOV

Jurnal 2000-yildan nashr etila boshlangan.  
O'zbekiston matbuot va axborot agentligida  
2007-yil 3-yanvarda qaytadan ro'yxatga olinib,  
0109-raqamli guvohnoma berilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar  
Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi  
tomonidan 2017 yil 29 avgustdagi 241/8 qarori  
bilan Pedagogika fanlari bo'yicha dessertatsiyalar  
yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop etishga  
tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Manzil:** 100095, Toshkent sh., Olmazor tumani  
Universitet ko'chasi, 2-uy

**Tel.:** 90-979-75-89; 94-677-90-32;

**E-mail:** kasbhunartalimi@mail.ru,  
ksbjurnal@inbox.uz.

## Nashr uchun mas'ul

H.Sirojiddinov

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazariga to'g'ri  
kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar tahrir etilmaydi  
va egasiga qaytarilmaydi.

Jurnaldan ko'chirib bosinganda "Kasb-hunar ta'limi"  
jurnalidan olingani izohlanishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 10.06.2021-yil.  
Bichimi 60x84 1/8

Bosma tabog'i 10. Adadi 60 nusxa.  
Buyurtma "PROFIEDUPRESS" MChJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Sirg'ali tumani,  
Yangi Sirg'ali ko'chasi, 18-uy

# МУНДАРИЖА

## КАСБИЙ ТАЛЬИМ

A.Набиев, М.Шокирова, З.Эшбаева	Техникавий ва касбий-техникавий таълимда касбий маҳорат ва компетенциялар уйғуллигини таъминлашнинг долзарблиги .....	2
А.М.Мухаметов	Жисмоний тарбия ва оммавий спорт-соғломлаштиришмашғулотларида юкламаларни меъёрлаштиришнинг илмий-методик асослари.....	9
Н.Қ.Тохташева	Ўқувчиларни ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик хусусиятлари .....	14
Н.В.Рузметова	Условия и средства воспитания правового сознания студентов в юридическом техникуме.....	18
В.Э.Убайдова	Олий таълим соҳасида енгил саноат мутахассисларини тайёрлашда Накшбандия таълимотидаги вақтни қадрлаш гояси нинг аҳамияти .....	21
С.Н.Ходжигеков	Халк хужалигида ишлатиладиган полимер моддаларнинг аҳамиятини , техник ва кишлек хўжалиги йўналиши олий укув юртлари талабаларига уқитиш .....	26
С.Юлдашова	Технология дарсларида ўқувчиларга ижтимоий-психологик ёндашган холда касбга йўллаш методикаси.....	30
В.В.Baymetov X.X.Muratov	Uzluksiz ta'limgazalarida yoshlarning mustaqil ta'limgazalarida tashkil etishning ilmiy metodik asoslari.....	33
Н.Р.Сирожиддинова	Профессионал таълим муассасаларида амалий тренингларга йўналтирилган ўкув дастурларининг аҳамияти .....	38
О.Р.Nasreddinova	Davlatboshqaruvining ma'muriy-huquqiy usullari....	42
Н.Б.Шамсиддинов, О.Қ.Юсупов, С.Сандахмедов	Жадвал кўрининшида берилган малумотларни аналитик кўрининшида ифодалаш .....	49
F.Sh.To'xtayeva	Bo'lajak professional ta'limgazalarida qituvchilarining raqamli kompetentligini rivojlantirish muammolari .....	57
Г.С.Хужаниёзова	Вазияти масалалар касбий йўналтирилганликни амалга ошириш воситаси сифатида .....	60
К.М.Гуломова	Ўқувчиларнинг касбий фаолиятга тайёрлашда mustaqil taъlimning aҳamияti .....	65
А.Р.Азизова	Исторический аспект проблемы использования цифровых образовательных технологий в профессиональных вузах.....	70
SH.E.Qarshiboyev	Oliy ta'limgazalarida maxsus kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi .....	74
З.Каримова	Yaxshi tarbiya - eng yaxshi meros .....	80
Е.К. Султанов	Совершенствование методики профессиональной подготовки будущих специалистов аграрного комплекса .....	84
Н.Н.Каримова	Педагогнинг касбий стандартини яратиш жаҳон амалиётида педагогик муаммо сифатида .....	90
Н.В.Рузметова	Условия и средства воспитания правового сознания студентов в юридическом техникуме.....	94
С.А.Уралов	Бошлангич профессионал таълим муассасаларида ишлаб чиқариш таълими усталари иш фаолияти самародорлигини ошириш муаммо сифатида.....	97
Д.А.Хикматуллаева, Н.Б.Куватова	Ўзбекистон республикасида таъlim tizimini modernizatsiyaлашдаги ислоҳотлар.....	104
А.Р.Yusupova, М.В.Ubaydullaev	Dual ta'limgazalarida zarur bo'lgan tizimli o'zgarishlar.....	109
Sh.A.Abduraxmanova	Raqamli texnologiyalarni professional ta'limgazalarida tizimida qo'llanilishi.....	114
F.G.Muxammadiev	Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining axborot texnologiyalari bo'yicha kompetenligini rivojlantirish.....	118
К.А.Каримов	Профессионал таълим тизими педагог кадрлари малакасини оширишнинг инновацион ахборот-дидактик шакиллари.....	122
О.А.Каюмов	Интерактив интеллектуал электрон таълим ресурсидан ўкув жараённида фойдаланиш методикаси.....	126
А.Б.Таджибаев, М.Х.Икромов	Тасвирий санъат ўқитувчиларини касбий тайёрлаш жараённида ўқитувчиларни шакилларидан фойдаланиш.....	134

# UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARNING MUSTAQIL TA'LIM OLISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING ILMIY METODIK ASOSLARI

**B.B. BAYMETOV** - Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,  
“Tasviriy san'at” kafedrasini professori

**X.X. MURATOV** – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti,  
“Tasviriy san'at” kafedrasida dotsent v.b.

**Annotatsiya:** Maqola uzluksiz ta'lrim tizimida yoshlarni mustaqil ta'lim olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda mustaqil ta'lim olish orqali yetuk mutaxassis bo'lib yetishishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Yosh avlodni kasb-hunarga o'rgatish, ustoz-shogird tizimida tarbiyalab, yetuk, el yurt taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan inson bo'lib yetishishilari borasida qomusiy olimlarning qarashlari, taniqli zamonaviy olimlarning fikr va mulohazalari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ta'lim, mustaqil ish, ta'lim texnologiyalari, yoshlar tarbiyasi, pedagogika, metod.

**Аннотация:** Статья направлена на совершенствование системы самостоятельного образования молодежи в системе непрерывного образования, которая охватывает теоретические и практические аспекты становления професионала посредством самостоятельного обучения. Взгляды ученых-энциклопедистов, взгляды и суждения известных современных ученых о профессиональной подготовке подрастающего поколения, его воспитании в системе учителей и учащихся, развитии в зрелых людей, служащих развитию страны.

**Ключевые слова:** самостоятельное обучение, самостоятельная работа, образовательные технологии, воспитания молодежи, педагогика, метод.

**Annotation:** The article is aimed at improving the system of self-education of young people in the system of continuous education, which covers the theoretical and practical aspects of becoming a professional through self-study. The views of scientists-encyclopedists, the views and judgments of famous modern scientists about the professional training of the younger generation, its upbringing in the system of teachers and students, development into mature people serving the development of the country.

**Key words:** independent learning, independent work, educational technologies, youth education, pedagogy, method.

Bugungi kunda yoshlarni auditoriya va sinflarda akademik o'qitish jarayoni bilan bir qatorda ularda mustaqil ta'lim olish faoliyatini tashkil etish va boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish, mahoratli mutaxassislar sifatida tarbiyalash birinchi galdeg'i muhim vazifalardan biri sifatida bo'lib kelmoqda. Ushbu muammoni muvafaqiyatlil hal qilish uchun esa, mustaqil ta'limg'i tashkil etish metodikasini takomillashtirish asnosida mustaqil faoliyat olib borish va ta'limg'i uzviylik hamda uzluksizlik tamoyillaridan maqsadli foydalanish muhimdir. Mazkur

masalani bir oz kengroq olib qaraydigan bo'lsak, mustaqil ta'lim nafaqat oliy ta'lim talabalariga, balki uzluksiz ta'limg'i barcha bo'g'inalriga tegishli va mazkur muammo boy tarixga ega ekanligini ishonch bilan aytish mumkin.

Rus olimlaridan M.N. Skatkin, B.P. Yesipov, A.A. Gorsevskiy va M.I. Lyubitsinlar mustaqil faoliyat bilan bog'liq psixik jarayonlarni va uni tashkil etishning uslubiy usullarini o'rganlar.

Mustaqil ta'limg'i tashkil qilishning pedagogik muammo sifatida ekanligi va

uning bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligining muhim omili ekanligi masalalari bilan o‘zbek olimlaridan N.A.Muslimov, P.T.Magzumov, U.N.Nishonaliyev, N.Sayidahmedov, A.R.Xodjaboyev, Q.P.Husanboyeva, Safo Matchon, Z.Nishonova, T.Niyazmetova, J.Tolipova, va boshqalar o‘z ishlarida tadqiq qilganlar. U.N.Nishonaliyev mehnat ta’limi o‘qituvchisini tayyorlashning tarixiy taraqqiyoti va shaxsiy xislatalarini N.Sayidaxmedov talabalarni, umumta’lim maktablari o‘quvchilarni unumli mehnatga rahbarlikka tayyorlashni

Taniqli filolog, malakali pedagog-olim Safo Matjonning ilmiy tadqiqot ishi ham biz tadqiq etayotgan masala bo‘yicha dolzarb masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etishgaqaratilgan. Xususan, undamashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilarning yozma va og‘zaki ijodiy ishlarini tashkil etish masalalari tadqiq qilingan. O‘zining mustaqil tafakkuri, nuqtai nazariga ega bo‘lish o‘quvchining badiiy jihatdan barkamol, ijodkor bo‘lishining omili bo‘lishiligi aniq misollarda keltirilgan, mustaqil faoliyat yurita olishi ilmiy jihatdan isbotlangan [1, 42-b.].

Turli soha pedagog olimlarining ta’kidlashiga ko‘ra, mustaqil ta’limni tashkil etish jarayonini faollashtirish malakali kadrlar tayyorlash sifatini takomillashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Talabalarning mustaqil ta’lim olishlarini tashkil etishda oliy ta’limda faoliyat olib boruvchi barcha professor-o‘qituvchilarida kasbiy mahoratining yuqori bo‘lishi, talabalarni u yoki bu sohaga qiziqtira olish birinchi galdeggi masala bo‘lsa, ikkinchi masala talabalarning bo‘lajak o‘z kasbiga sadoqati, davlat va jimiyat oldidagi burchi, kelajakka intilishi, shu yurt, shu vatanga sodiq xizmat qilishda egallayotgan bilim va malakalarini mustaqil ta’lim faoliyati davomida takomillashtirish muhim masala hisoblanadi. Bunda u faol,

ta’limda, kasbiy mahoratini oshirishda yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda mustaqil ta’lim muhim omil sifatida qaraladi. Mustaqil ta’lim olishni tashkil etish uchun nafaqat muayyan kasbga yoki faoliyat sohasiga qiziqish, balki ushbu faoliyat turiga layoqatning mavjud bo‘lishi ham talab etiladi. Mustaqil ta’lim shaxsning o‘zi tomonidan boshqarilishini e’tiborga olib, bu faoliyat bilan inson erkin holda va istagan vaqtida manbalardan o‘zi tanlab, maqsad, vosita, mazmun nuqtai nazaridan foydalanishi mumkin. Mustaqil bilim olishda avtonomlik bu o‘qitish maqsadlari, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalarni aniqlash va tanlash, ularni qiynalmasdan hamda tashqi ta’sir yordamisiz, amalga oshirish qobiliyatidir [2, 128-b.].

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, uzoq yillar davomida mustaqil ta’lim olish muammosi faqatgina umumta’lim maktablaridagi o‘quv jarayoni bilan bog‘liq holdahal qilibkelingan. Oliyo‘quv yurtlarining o‘quv jarayoniga esa, bu muammolarga ancha keyinroq kirib kela boshlandi.

Biz o‘rganayotgan tasviriy san’at fanlarini o‘qitish metodikasi nuqtai nazardan esa, bugungi kungacha respublikamizda yetarli darajada fundamental ilmiy tadqiqot ishi olib borilmagan. O’tgan asrning oxirlarida tasviriy va amaliy san’at sohalarida respublikamizning yetakchi olimlaridan B.B.Baymetov, S.S.Bulatov, N.X.Tolipov va boshqalar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ularning tadqiqotlarida oliy pedagogik ta’lim muassasalarining badiiy grafika fakultetlarida talabalarga tasviriy san’at darslarini tashkil etishda o‘zbek milliy xalq amaliy san’ati namunalaridan foydalanishda mustaqil ta’lim usullarini qo’llash [3.180 b.] masalalari bevosita ko‘rib chiqilgan.

Keyingi vaqtida ko‘plab tadqiqotlarda

mustaqil ta'limni tashkil etishning intensivlashuvi nuqtai nazaridan ko'rib chiqilmoqda, bu nafaqat o'quvchi yoki talabalarning faolligini oshirish uchun o'qituvchining faolligini oshirishni, balki sinfdan va auditoriyadan tashqari ishlar sifati va samaradorligini oshirish bilan bog'liq barcha masalalarni hal qilishni ham o'z ichiga oladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida turli o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida o'quvchi va talabalarda mustaqil ish bajarish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Matematik olimlar S.I.Demidova va L.O.Denishevalar mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berganlar: «O'quvchilarning o'qituvchi tomonidan mustaqil ish mazmuni, mustaqil ishlashni faol tashkil etiishga, ularni oldiga quyilgan didaktik maqsadlarni bajarishga yo'naltirilgan va shunga maxsus ajratilgan vaqt tushuniladi. Bilimlarni qidirish, ularni anglab yetish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish bilimlarini umumlashtirish, tizimlashtirish jarayoni tushuniladi.

Biz o'rganayotgan mazkur tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha talabalarda mustaqil bilim olishini tashkil etish, qiziqishlarini oshirish va qobiliyatlarini takomillashtirishga qaratilgan quyidagi omillarni shakllantirish muhim hisoblanadi. Mazkur muammoni hal etishning muhim omili sifatida tasviriy san'at fanlaridan ilmiy va ijodiy bilim va malakalarini takomillashtirishni talab etiladi.

Bu ta'rifda faoliyat xususiyatlari: faollik, tizimlilik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik haqida so'z yuritilgan. Biroq mustaqil ta'limning bir jihatni sifatida mustaqillik tilga olingan. Mustaqil tafakkur ta'limning bir qismi bo'lishi mumkin.

Talabalarning jadval asosida o'tkaziladigan rasmiy darslardan bo'sh vaqtlarida mustaqil ta'lim asosida nazorat qilinadigan akademik mustaqilligini

kengaytirish asosiy tendensiya hisoblanadi.

Dunyoning Aqsh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Avstriya, Yaponiya kabi eng yirik xorijiy mamlakatlarining oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish, talabalarning o'z-o'zini rivojlantirish uchun didaktik asoslarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda. Bu mamlakatlarda o'quvchilarning o'z-o'zini rivojlantirish, ularning individual xususiyatlarini bilish, o'quv jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf yetishda maqsadli yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida rivojlangan mamlakatlarning olimlari mustaqil ta'lim olish tamoyillarini biroz boshqacharoq tarzda talqin qilishadi. Ularning fikricha, ta'limni individuallashtirish, tushunish zarur va u har bir shaxsning o'z ijodiy yo'lini topib olish imkonini berib, deb ularning eng yaxshi ta'lim "alohida qobiliyatli yoshlarni maqsadli ravishda ajratib o'qitish" deb ta'kidlaydilar. Yaqinda bu konsepsiya ta'lim sohasidagi ko'plab yangi loyihalarni nazariy jihatdan asoslab beradi.

Bundan tashqari, taniqli olim D. Brunerning fikricha talabaga har qanday murakkablikdagi masalalar topshirilsa ham mustaqil ta'limda uni yechish imkoniyati bo'laverishi ta'kidlanadi.

Xorijiy pedagogik adabiyotlarda "mustaqil ish" tushunchasi turli ta'rifalar bilan izohlanadi: "mustaqil ish" (independent activity), "o'z-o'ziga ko'rsatma berib ish bajarish" (individual instruction study), "avtonom (ayro xolda) bajariladigan ish" (autonomous study), "o'z-o'zini yo'naltirib bajariladigan ish" (self-directed learning), "o'z-o'ziga qulay ish" (self-access learning). Ushbu atamalarning ta'rifi va farqlanishi D.J. Boud asarlarida keltirilgan.

Uslubiy adabiyotlar tahlili mustaqil ta'lim faoliyatining muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilganligini ko'rsatdi. Biroq, oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog

kadrlarni kasbiy tayyorlash masalalariga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar hali yetarli darajada tadqiq qilinmagan va u bugungi kunda yechimlarini topishi kerak bo‘lgan sohalardan biridir.

Talabalarning mustaqil ta’limini tashkil etish jarayoni o‘quv faoliyatining majburiy tarkibiy qismidir. Shuning uchun uni fakultet va kafedralarda puxta uslubiy o‘rganish va metodik jihatdan tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilishi kerak. Uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, mustaqil faoliyat muammolari nazariy jihatdan ancha chuqur ishlab chiqilgan. Biroq, barcha oliy pedagogik ta’lim muassasalarining o‘ziga xos xususiyatlari turlicha bo‘lib, shuning uchun hamma uchun bir xil yechimlarni topish mumkin emas.

Zamonaviy falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik va uslubiy adabiyotlarda o‘quvchilar va talabalar mustaqil ta’limning turli jihatlari ko‘rib chiqilgan. Biroq, ba’zi muammolarni hal qilishda ma’lum qiyinchiliklar mavjud. Shuninguchun “mustaqil ish” tushunchasining yagona talqini yo‘q.

Mustaqil ta’lim, o‘quv jarayoniga kiritilgan talabalarning ishi - o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz, lekin uning topshirig‘iga binoan, buning uchun maxsus belgilangan vaqtida bajariladigan ish bo‘lib, bunda o‘quvchilar ongli ravishda o‘z kuch-g‘ayratlarini ishga solib, aqliy yoki jismoniy (yoki har ikkala) harakatlarining natijasini u yoki bu shaklda ifodalab, topshiriqda qo‘ylgan maqsadga erishishga intilishlaridir. Mustaqil ta’lim jarayonida o‘qituvchining roli, uning bevosita ishtiroki ham katta bo‘lib, u talabaning ijodiy faolligini takomillashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, bu ta’rif an’anaviy ta’limga ham tegishli, chunki u o‘qituvchining ushbu faoliyatini tashkil etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Rivojlantiruvchi

ta’lim tizimida esa mustaqil ta’limni, kursdoshlar bilan va iloji bo‘lsa, mutaxassislar bilan, bizning holatlarimizda rassomlar bilan muloqot qilish imkoniyatini o‘z ichiga olishi kerak. Talaba tomonidan bajariladigan o‘quvijodiy ish mustaqillik maqomini yo‘qotmaydi, chunki u o‘z rahbari bilan maslahatlashadi, do‘srtlari bilan suhbatlashadi, ya’ni maqsadga muvofiq muloqotda qatnashadi, bu nafaqat ijodiy jarayonda, balki kelajakda mustaqaml tarzda badiiy ijodiy faoliyatda ham foydali bo‘ladi.

Mustaqil ish shunday o‘quv qurolik, u: o‘zlashtirishning har bir aniq holatida muayyan didaktik maqsad va vazifaga mos keladi; o‘quvchida bilimsizlikdan bilimga o‘tish harakatining har bir bosqichida ma’lum bir sinf bilish vazifalarini hal qilish uchun zaruriy hajm va darajadagi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantiradi va shunga mos ravishda aqliy faoliyatning quyi bosqichlaridan yuqori darajalariga o‘tadi; o‘quvchida o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tizimli ravishda to‘ldirishga psixologik munosabatni rivojlantiradi va yangi kognitiv muammolarni hal qilishda ilmiy va kasbiy ma’lumotlar oqimida harakat qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi; kognitiv faoliyat usullarini o‘zlashtirishda talabaning o‘zini o‘zi tashkil etishi va o‘zini o‘zi boshqarishining eng muhim sharti hisoblanadi; - o‘quv jarayonida o‘quvchining mustaqil bilish faoliyatini pedagogik yo‘l-yo‘riq va boshqarishning eng muhim vositasidir.

Bu ta’rif, bizningcha, o‘rganish uchun vosita va shart sifatida qaraladigan mustaqil ishning muhim xususiyatlarini ochib bermaydi. Agar ushbu ta’rifdan foydalanib, ushbu o‘quv vositasi va boshqa har qanday (masalan, didaktik material o‘quv vositasi sifatida) o‘rtasidagi farqni aniqlasa, unda ko‘rsatilgan barcha fikrlar ushbu o‘quv vositalariga mos keladi.

Umuman olganda, uslubiy adabiyotlarda mustaqil ta’lim ko‘pincha

o‘qitish shakli yoki usuli sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, u ta’lim jarayonini faollashtirish vositasi sifatida ham, bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish, talaba yoki o‘quvchilarning ko‘nikma va malakalarini shakllantirishning zarur sharti sifatida ham belgilanadi. Ta’lim jarayoni tizimida mustaqil ishlashga ham ta’lim vositasi, ham o‘quv va ilmiy bilish shakli sifatida qaralishi kerak.

Mazkur muammoga bag‘ishlangan ba’zi ilmiy tadqiqot ishlarida mualliflar mustaqil ta’limning asosiy belgilarini aniqlashga harakat qilishadi. Talabalarning mustaqil ishlarining yuqoridaagi barcha ta’riflari hodisa sifatida asosan bitta narsaga yo‘naltirilgan, u shunday ta’riflanadi: Ushbu faoliyat o‘quvchilarning o‘z faoliyatlarini o‘qituvchining bevosita rahbarligisiz amalga oshirganlarida, ta’lim jarayonida mustaqil ish metodidan foydalaniishi bilan belgilanadi.

Yuqorida biz talabalarga mustaqil ta’limni tashkil etishning tamoyillari bilan tanishib chiqdik. Ular talabalarni pedagogik faoliyatga kasbiy tayyorlashdagi asosiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda to‘ldirilishi va ta’limning turli bosqichlarida yanada takomillashishi mumkin. Biroq, o‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, talabalarni kasbiy pedagogik faoliyatga tarbiyalashda mustaqil ta’lim tizimining asosilarini egallashlari, bu yo‘lda talabalarning tasviriylarini faoliyatda qanday nazariy qoidalarni o‘zlashtirganliklari, turli tasvirlash vositalaridan foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirganliklari, ijodiy mustaqillikni rivojlantirib, o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga qodir rassom-o‘qituvchi shaxsi sifatida kasbiy shakllanishilari va nazariy va amaliy bilimlarini doimiy ravishda takomillashtirish imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin.

## Фойдаланилган адабиётлар:

1. Матчанов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: Автограф. дис. ... пед.фак.докт. – Т.:1998. – 42 б.
  2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: Фан, 2004.
  3. Байметов Б.Б. Основы изучения национального орнамента и методика его обучения на художественно-графических факультетах педагогических институтов (на материале Республики Узбекистан) Диссертация кандидата педагогических наук. – М.: 1992.